



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlar misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboieva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloyev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	

O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Suvanova Baxtigul Baxridinovna

Samarqand davlat pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilingan. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yuqori intellektual salohiyatga ega yosh avlodni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda intellektual qobiliyat tushunchasining ilmiy-pedagogik mazmuni ochib berilib, bilish jarayonlari – idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvurning o'zaro integratsiyalashganligi asoslab berilgan. Shuningdek, Jean Piagetning intellekt rivojlanishi haqidagi nazariy qarashlariga tayangan holda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan. Natijada intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va muammoli ta'limning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, bilish jarayonlari, tafakkur, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, raqamli texnologiyalar, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the pedagogical and psychological foundations for developing students' intellectual abilities. In the context of globalization and digital transformation, fostering a generation with high intellectual potential is considered a key factor in societal development. The study reveals the scientific and pedagogical essence of the concept of intellectual ability and substantiates the interrelation of cognitive processes, including perception, memory, thinking, attention, and imagination. Based on the theoretical views of Jean Piaget, the importance of considering students' age-related and individual characteristics is emphasized. The findings highlight the significance of modern pedagogical technologies, interactive methods, and problem-based learning in enhancing intellectual development.

Key words: intellectual abilities, cognitive processes, thinking, pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, digital technologies, independent thinking, critical thinking.

Аннотация: В данной статье системно анализируются педагогические и психологические основы развития интеллектуальных способностей учащихся. В условиях глобализации и цифровой трансформации формирование интеллектуально развитого поколения рассматривается как важнейший фактор общественного прогресса. Раскрывается научно-педагогическая сущность понятия "интеллектуальные способности", обосновывается взаимосвязь познавательных процессов – восприятия, памяти, мышления, внимания и воображения. На основе теоретических взглядов Жан Пиаже подчеркивается необходимость учета возрастных и индивидуальных особенностей учащихся. Результаты исследования демонстрируют значимость современных педагогических технологий, интерактивных методов и проблемного обучения в развитии интеллектуальных способностей.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, познавательные процессы, мышление, педагогические технологии, интерактивные методы, проблемное обучение, цифровые технологии, самостоятельное мышление, критическое мышление.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qiladigan hamda ijodiy yondashuvga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, axborot oqimining keskin ortishi va jamiyat hayotida bilimning ustuvor ahamiyat kasb etishi ta'lim mazmuniga yangicha talablarni qo'yimoqda. Endilikda ta'lim jarayonida o'quvchiga faqat tayyor bilimlarni berish yetarli bo'lmay, unda bilimni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zarurati kuchaymoqda.



O'quvchilarning intellektual qobiliyatlari – bu ularning idrok etish, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur, nutq, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv ko'rsatish hamda mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlarini ifodalovchi murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Mazkur qobiliyatlar shaxsning umumiy rivojlanishida, bilimlarni muvaffaqiyatli egallashida va keyingi ijtimoiy-hayotiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, maktab yoshida o'quv faoliyatining yetakchi faoliyatga aylanishi bilan intellektual rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Maktab ta'limi davrida o'quvchilarning aqliy faoliyati jadal rivojlanadi: ular taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash, nazariy tushunchalarni o'zlashtirish hamda o'z fikrini asoslashga o'rganadilar. Shu bilan birga, bu jarayon o'z-o'zidan yuz bermaydi. U maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, o'quv topshiriqlarining to'g'ri tanlanishi, o'qituvchining kasbiy mahorati hamda oila bilan hamkorlik orqali samarali kechadi. Demak, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayonining qo'shimcha emas, balki markaziy vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pgina hollarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim hajmiga ko'proq e'tibor qaratilib, ularning fikrlash jarayoni, mustaqil tahlil qilish qobiliyati, muammoli vaziyatlarda yechim topishi va ijodiy faoliyati yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaydi. Natijada ayrim o'quvchilar o'quv materialini yod olishi mumkin, biroq uni tahlil qilish, yangi vaziyatga ko'chirish, o'z nuqtayi nazarini asoslash yoki mustaqil xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch keladi. Shu bois o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlash, bu jarayon samaradorligini ta'minlovchi omillarni ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur masala pedagogika, psixologiya, kognitiv rivojlanish nazariyasi va ta'lim metodikasi kesishgan nuqtada joylashgan kompleks muammo sifatida namoyon bo'ladi. Intellektual rivojlanish nafaqat bilimlarni egalash darajasi, balki o'quvchining fikrlash usuli, o'quv motivatsiyasi, refleksiyasi, bilishga qiziqishi va amaliy faoliyatda bilimdan foydalanish qobiliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishni ilmiy asoslangan pedagogik shartlar, samarali metod va vositalar orqali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda o'quvchilarning intellektual rivojlanishi shaxs kamolotining yetakchi ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning tafakkuri yosh bosqichlariga muvofiq ravishda sodda amaliy harakatlardan mantiqiy operatsiyalar va nazariy fikrlash darajasiga ko'tariladi. Bu yondashuv ta'lim amaliyotida o'quv topshiriqlari o'quvchining yosh va tafakkur xususiyatlariga mos bo'lishi, shuningdek, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy amallarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

L.S. Vygotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab, "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surgan. Unga ko'ra, o'quvchi kattalar yoki tengdoshlari yordamida mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni bajarish orqali intellektual jihatdan rivojlanadi. Mazkur nazariya o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishda hamkorlikda o'qitish, yo'naltiruvchi savollar, bosqichli yordam, dialogik ta'lim va reflektiv muloqotning katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Vygotskiy qarashlari intellektual rivojlanishning ijtimoiy tabiatga ega ekanini, ya'ni tafakkur avvalo muloqot va faoliyat jarayonida shakllanib, keyinchalik ichki aqliy faoliyatga aylanishini asoslaydi.

J. Bruner ta'limda kashfiyot orqali o'qitish g'oyasini ilgari surib, o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni faol o'zlashtiruvchi subyekt bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarning intellektual faolligini kuchaytirish, savol berish, faraz ilgari surish, muammoni izchil hal etish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhimdir. Bloom taksonomiyasida esa bilish jarayoni eslab qolishdan tortib tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholashgacha bo'lgan bosqichlarda ifodalanadi. Ushbu yondashuv ta'lim mazmunini faqat reproduktiv bilimlar bilan cheklamasdan, yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini ham shakllantirish lozimligini ko'rsatadi.

H. Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasi intellektni yagona ko'rsatkich bilan baholash mumkin emasligini, o'quvchilarda turli intellekt turlari – mantiqiy-matematik, lingvistik, fazoviy, musiqiy, shaxslararo, ichki va boshqa qobiliyatlar turlicha namoyon bo'lishini asoslaydi. Mazkur yondashuv pedagogik amaliyotda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, differensial topshiriqlardan foydalanish, turli faoliyat shakllari orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. R. Sternbergning triarxiy intellekt nazariyasida esa analitik, ijodiy va amaliy intellekt turlari ajratilib, o'quvchining intellektual rivojlanishi faqat test natijalari bilan emas, balki muammolarni hal etish, yangi g'oya yaratish va hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati bilan ham belgilanadi.



Pedagogik adabiyotlarda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish ko'proq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim va faoliyatga asoslangan yondashuvlar doirasida talqin etiladi. Mazkur yondashuvlarning umumiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchi tayyor ma'lumotni yodlovchi emas, balki bilimni qayta ishlovchi, uni yangi vaziyatlarda qo'llovchi va mustaqil fikr yurituvchi subyekt bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan "pedagogik shartlar" tushunchasi intellektual rivojlanishni ta'minlovchi omillar majmui sifatida ko'riladi: rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, muammoli topshiriqlar, savol-javob va muloqot, mustaqil ish, refleksiya, differensial yondashuv, rag'bat va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, maktab-oila hamkorligi.

Milliy pedagogik tafakkurda ham aqliy kamolot masalasi muhim o'rin egallaydi. Xususan, Abdulla Avloniy ta'limni inson tafakkurini, odobini va ma'naviy dunyosini yuksaltiruvchi asosiy omil sifatida baholaydi. Sharq mutafakkirlari qarashlarida ilm, tafakkur, idrok, aql va komil inson g'oyalari o'zaro uzviy bog'liqlikda talqin etiladi. Zamonaviy ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy tahlil, kommunikativ kompetensiya va intellektual faollikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab kelinmoqda.

Demak, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirish masalasi ko'p omilli va kompleks xarakterga ega bo'lib, u psixologik qonuniyatlar, pedagogik ta'sir mexanizmlari, ta'lim muhiti hamda metodik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligida samarali namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar majmuasidan kompleks ravishda foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tizimli tahlil qilinib, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga doir nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Shuningdek, ta'lim amaliyotidagi mavjud holatni aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, o'quv faoliyatini tahlil qilish hamda diagnostik topshiriqlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini baholash uchun bir qator mezonlar belgilandi. Jumladan, mantiqiy fikrlash, tahlil va taqqoslash qobiliyati, muammoli vaziyatlarda yechim topish, mustaqil xulosa chiqarish, bilishga qiziqish, ijodiy faollik va refleksiya ko'rsatkichlari asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari rivojlanishining mavjud holati aniqlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlarida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shartlar tizimi ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etildi. Bunda muammoli savollar, mantiqiy topshiriqlar, ijodiy mashqlar, kichik guruhlarda ishlash, munozara, taqqoslash va umumlashtirishga asoslangan faoliyat turlari keng qo'llanildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil, sifat ko'rsatkichlari va umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni dars mazmuni, o'qitish metodlari, o'quv topshiriqlarining xarakteri, o'qituvchi-o'quvchi muloqoti, sinfdagi psixologik muhit hamda oila bilan hamkorlik kesimida tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliyotda ayrim hollarda ta'lim jarayoni asosan tayyor bilimlarni yetkazishga, matnni qayta aytib berishga va reproduktiv faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib qolmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilim hajmini oshirishi mumkin, biroq ularning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, savol qo'yishi va yangi vaziyatlarda bilimdan foydalanish qobiliyatini yetarli darajada rivojlantirmaydi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ayrim o'quvchilar o'quv materialini eslab qolish va qayta bayon qilishda nisbatan muvaffaqiyatli bo'lsalar-da, topshiriqning mohiyatini chuqur tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, hodisalarni taqqoslash, umumiy va farqli jihatlarni ajratish hamda mustaqil xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch keladilar. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, ijodiy savollar yoki bir nechta yechim variantini talab qiluvchi topshiriqlar o'quvchilarning intellektual tayyorgarligini aniqroq namoyon etadi. Mazkur holat ta'lim jarayonida intellektual rivojlantiruvchi metodlar ulushini oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu asosda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlar tizimi aniqlashtirildi. Avvalo, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish muhim omil sifatida asoslandi. Bunday muhitda o'quvchi fikr bildirishi, savol berishi, xato qilishdan qo'rqqanligi, izlanishi va o'z nuqtayi nazarini himoya qila olishi kerak. O'qituvchining rag'batlantiruvchi munosabati, adolatli baholash tizimi va muloqot madaniyati o'quvchining intellektual faolligini kuchaytiradi.



Ikkinchi muhim omil sifatida muammoli ta'lim va faoliyatga asoslangan yondashuvning samaradorligi aniqlandi. Dars jarayoniga muammoli savollar, mantiqiy vaziyatlar, izlanishga undovchi topshiriqlar, tahliliy va ijodiy mashqlar kiritilganda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faraz qilish, dalillash va xulosa chiqarish ko'nikmalari faolroq shakllanadi. O'quvchi tayyor javobni qabul qilganda emas, balki javobni topish jarayonida faol ishtirok etganda uning intellektual salohiyati ko'proq rivojlanadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda differensial yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Barcha o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, fikrlash sur'ati, qiziqish doirasi va o'quv motivatsiyasi bir xil emas. Shu sababli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra tabaqalashtirish, individual va guruhli ishlarni uyg'unlashtirish, turli usullar orqali o'quv materialini tushuntirish o'quvchilarning imkoniyatlarini to'liqroq namoyon etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda muvaffaqiyat hissini kuchaytirib, ularning bilishga qiziqishini oshiradi.

Psixologik jihatdan olib qaralganda, o'quvchilarning intellektual rivojlanishi diqqat barqarorligi, xotira hajmi, nutq rivoji, tafakkur moslashuvchanligi, bilishga qiziqish va ichki motivatsiya bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Agar ta'lim jarayonida o'quvchi ruhiy bosim ostida qolsa, xatodan qo'rqsam yoki faqat nazorat va baho uchun ishlasa, uning intellektual faolligi pasayishi mumkin. Aksincha, qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit, ijodiy rag'bat, qiziqarli o'quv vaziyatlari va erkin fikr almashish imkoniyati tafakkur faolligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari muhim metodik xulosaga olib keladi: o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirish faqat bilim hajmini ko'paytirish bilan emas, balki ularni fikrlashga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, sabab-oqibat bog'lanishlarini topish, muammoni bir necha usulda hal etish, o'z fikrini asoslash va refleksiya yuritish kabi aqliy harakatlar darsning doimiy tarkibiy qismiga aylantirilgandagina yuqori natijaga erishish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning uch bosqichli modeli taklif etildi.

- *Birinchi bosqichda* o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish, muammoli vaziyatni anglash va fikrlashga motivatsiya hosil qilish ko'zda tutiladi.
- *Ikkinchi bosqichda* ular tahlil, solishtirish, umumlashtirish, mantiqiy bog'lanishlarni topish kabi intellektual amallarni o'qituvchi ko'magida bajaradilar.
- *Uchinchi bosqichda* esa o'quvchilar mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish, o'z qarorini asoslash va refleksiya qilish darajasiga ko'tariladi.

Aynan shu izchillik intellektual rivojlanishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, intellektual rivojlanish ta'lim jarayonining tabiiy natijasi emas, balki maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir, rivojlantiruvchi muhit, maqsadli metodlar va qulay psixologik sharoitlar asosida shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu bois o'quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki ularni fikrlashga, izlanishga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish ta'limning ustuvor vazifasi bo'lishi lozimligi asoslandi.

Tadqiqot natijalari o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarning o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishiga bog'liqligini ko'rsatdi:

- rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini shakllantirish
- muammoli ta'lim va intellektual faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini differensial va bosqichli tashkil etish;
- o'qituvchi-o'quvchi muloqotida erkin fikrlash va savol berishni rag'batlantirish;
- refleksiya, o'zini baholash va mustaqil xulosa chiqarish mexanizmlarini joriy etish;
- maktab va oila hamkorligini kuchaytirish.

Shuningdek, maqolada intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning uch bosqichli modeli taklif etildi:

- birinchi bosqichda o'quvchilarda bilishga qiziqish va fikrlashga motivatsiya shakllantiriladi;
- ikkinchi bosqichda ular tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va muammoni hal etish amallarini o'qituvchi ko'magida bajaradilar;
- uchinchi bosqichda esa mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va refleksiya ko'nikmalari barqarorlashadi.



Natijadorlikni aniqlash uchun mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv, muammoli vaziyatlarda yechim topish, ijodiy faollik, bilishga qiziqish va refleksiya mezonlari muhim indikatorlar sifatida belgilandi. Ushbu ko'rsatkichlar o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini aniqlash va pedagogik ta'sir samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning eng muhim sharti ta'lim jarayonini axborotni uzatish tizimi sifatida emas, balki tafakkurni rivojlantiruvchi, mustaqil izlanishga undovchi va ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi uzluksiz pedagogik tizim sifatida tashkil etishdan iborat ekanini tasdiqlaydi. Aynan shunday yondashuvda o'quvchi nafaqat bilimli, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi va o'z intellektual salohiyatini hayotiy vaziyatlarda namoyon eta oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'limga oid davlat ta'lim standartlari.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
4. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
6. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
7. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longmans, Green and Co., 1956.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
9. Sternberg R. J. Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
10. Davydov V. V. Problems of Developmental Teaching. – Moscow, 1986.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.